

QURILISH TERMINLARI TARAQQIYOTI

Sag'dullayev Ma'ruf Ilhom o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

Toshkent filiali assistenti

marufsagdullayev@gmail.com

93-348-88-42

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillardan o'zbek tiliga kirib kelgan qurilish va muhandislikka oid atama va terminlarning amaliyotda qo'llanilishi, unga mos muqobillarni topish muammolari va ularning yechimlari milliy qadriyatlarimiz bilan uzviy bog'liqligi haqida fikr mulohazalar misollar orqali yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** qurilish, terminlar, terminologiya, muhandis, konstruksiya, oval, arka, me'morchilik, restovratsiya, atamalar, leksikografiya, arxitektura.*

Hozirgi davr terminologiya ancha taraqqiy etgan palla hisoblanadi, biroq ilm-fanda yangi kashfiyotlar bo'lishi natijasida yangi terminlar, atamalar va nomlar paydo bo'lmoqda. Shular natijasida qurilish, iqtisod, qishloq xo'jaligi va texnologiya sohasiga kirib kelgan yangi termin, atama, leksemalarni o'rganishni taqoza etadi. Qurilish sohasida ham anchagina yangi terminlar paydo bo'lmoqda. Hozirgi sharoitda qurilish terminologiyasini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Chunki qurilish terminologiyasidagi so'nggi atama hosil bo'lish jarayonlari va yangi atamalar majmuasi lug'atshunos olimlar tomonidan yetarlicha tahlil qilinmagan, qayta ishlanmagan va faoliyat sohasi doirasida o'rganilmagan. Ma'lumki, arxitektura va qurilishning rivojlanish tarixi bir necha asrlarni o'z ichiga oladi. Binobarin, qurilish terminologiyasi jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlari quruvchilarning kasbiy lug'ati shaklida shakllangan va uzoq vaqt davomida rivojlanib kelayotgan o'ziga xos leksik

tizimdir. Zamonaviy qurilish terminologiyasida vaqt, shakllanish manbalari va ma'lumotlar tamoyillari bo'yicha har xil xarakterdagi atamalarni topish mumkin. Bu esa mazkur sohani keng tarixiy asosda o'rganish, uning shakllanishi va tuzilishi xususiyatlarini aniqlashga nazariy va amaliy ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Ko'pgina qurilish atamaları umumiy leksikografiya qoidalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, umumiy tilda faol qo'llaniladi. Shuning uchun ham qurilish terminologiyasida kuzatilayotgan jonli o'zgarishlarni aniqlash imkonini beruvchi ilmiy izlanishlar bu sohada dolzarb va istiqbolli vazifa sifatida maydonga chiqdi. Bugungi kunda mamlakatimizda qurilish ishlari jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tiliga xorijiy tillardan qurilish, muhandislik va arxitektura sohalariga oid yangi atama va iboralar kirib kelmoqda. Bunday atamalarning ba'zan tilimizda muqobil variantini qo'llashimiz mumkin, ba'zan esa muqobili bo'lmagan atamaning o'zidan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunday ekan, bunday muammolarning yechimini topishda jahon sivilizatsiyasi va jahon axborot resurslaridan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biridir. Respublikamizda davlat tilini ko'proq rivojlantirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda, haligacha qurilish sohasiga oid terminlarni rus tilida qo'llanilishi hamda o'quv muassasalarimizda ham rus tilida berilishi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarimizga qiyinchiliklar tug'dirib kelmoqda. XX asr oxirlaridagi qurilish sohasi terminlari deyarli barchasi o'zbekcha terminlar hisoblangan. *-chi*, *-kor* qo'shimchalari juda faol qurilish terminlarini yasovchi qo'shimcha hisoblangan.

-chi qo'shimchasi, deyarli bilan bog'liq bo'lgan qo'shimchalar barcha tematik guruhlariga, ulardan faoliyati qurilish bilan bog'liq bo'lgan shaxslar ismlarining ma'nosi bilan atamalar hosil qiladi. Bular, masalan: payvand+chi=payvandchi, oyna+chi=oynachi, suvoq+chi=suvoqchi. -chi affiksi atama hosil qilishi mumkin: a) o'zak so'zlardan: loyiha+chi= loyihachi "dizayner", pardoz+chi+pardozchi, andava+chi=andavachi "devorni loy bilan tekislaydigan usta"; b) yasama asoslardan: buyurtma+chi=buyurtmachi "mijoz",

bo‘yoq+chi=bo‘yoqchi. -chi affiksi rus va xalqaro so‘zlardan unumli atama hosil qiladi: montaj+chi=montajchi “o‘rnatuvchi”, parket+chi=parketchi “uy ichining past qismiga parketni o‘rnatuvchi usta”.¹ Bundan tashqari sodda tub paxsa, randa, arra kabi so‘zlar ham mavjud bo‘lgan. XX asrlarda o‘zbek tilidan tashqari tojik tilidan o‘zlashgan ayrim terminlar ham mavjud bo‘lgan. Masalan, tosh tarosh (to+tarosh tojik tilidan kirib kelgan bo‘lib, tosh yo‘nuvchi ma’nosini ifodalagan), najjor (tojikcha, taxta ustasi) va boshqalar. XXI asrga kelib, fan-texnika sohasida turli xil ixtirolar qilinishi natijasida yangi terminlarga ehtiyoj sezila boshlaydi va shu asrdan boshlab terminologiya sohasi ancha rivoj topdi. Shu qatorda qurilish sohasi terminlari ham o‘rganilishga muhtoj bo‘lib bormoqda. Zamonaviy qurilish terminlari 2 xil usulda o‘zbek tilida paydo bo‘lmoqda:

1.Tashqi imkoniyatlar asosida. Rus va ingliz tillaridan kirib kelgan terminlar bunga misol bo‘ladi. Masakan, mixer, drill, lazer, stabilizator, fitting, elektr lobzik, miller.

2.Ichki imkoniyatlar asosida. O‘zbek tilidagi so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish (morfologik usul) va ikki va undan asoslarni birlashtirish orqali (sintaktik usul) yangi termin hosil qilinadi. Masalan, plastik quvur payvandlagich, gazli pushka, qurilish feni, puflagich, havo compressor, kanalizatsiya nasosi, kuchaytiruvchi suv nasosi, qurilish changyutgichi.

Xulosa o‘rnida shu aytishimiz mumkinki, qurilish sohasi terminologiyasi, atama va leksemalari hozirgi kunda o‘rganilishi kerak bo‘lgan yo‘nalishlardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Отажонова, М. (2017). Художественная эволюция мифологических сюжетов в узбекских прозаических произведениях. Научное обозрение Саяно-Алтая, (2), 85-88.

¹ Сапаев Каландар, Строительная терминология узбекского языка. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук – Тошкент, 1984, б-7.

2. Сапаев Каландар, Строительная терминология узбекского языка. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук – Тошкент, 1984, б-7.

2. Abdurahmanova M., & Rayimjonova M. (2021). Korpus lingvistikasida tarjimashunoslik masalasi. Computer linguistics: problems, solutions, prospects, 1(1).

3. Tursunaliyeva A.M. (2022). Ekolingvistika tilshunoslikning yangi sohasi sifatida. Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya, 1(2), 82-84.

4. Abdurahmanova M., & Malikova, Z. (2022). O'zbek tilida sotsiolekt. Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya, 1(2), 104-107.

5. Timirov A.M. English for engineering constructions. Turon nashr, 2021.- B.8,74.